

**SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA YARATILGAN ASARLARGA
MUALLIFLIK HUQUQINI BERISH VA BERMASLIKNING IQTISODIY-
HUQUQIY OQIBATLARI: QIYOSIY TAHLIL**

Sa'dullayev Akobir Nurbek o'g'li

**Jahon iqtisodiyot va diplomatiya Universiteti Xalqaro biznes huquqi
yo'nalishi magistratura talabasi**

Annotatsiya: *Generativ sun'iy intellekt (SI) modellarining jadal evolyutsiyasi intellektual mulk huquqining klassik inson-markazlik doktrinasini konseptual inqirozga uchratdi. Bern konvensiyasi, TRIPS va WCT kabi xalqaro shartnomalarning turg'unligi sharoitida, SI asarlariga mualliflik huquqini rad etish raqamli iqtisodiyotda investitsion va ijodiy turg'unlik xavfini tug'dirmoqda. Ushbu maqolada SI asarlariga huquq berish va bermaslikning iqtisodiy-huquqiy oqibatlari pragmatik-utilitar yondashuv hamda xalqaro pretsedentlar (Thaler v. Perlmutter, Pekin internet sudi qarorlari) asosida **prognozli modellashtiriladi**. Tadqiqotda huquqiy restriksiya (cheklash) modelining ijodiy faollikni bo'g'ishi, aksincha, foydalanuvchini huquq subyekti deb tan olish esa tarmoq effektini yuzaga keltirib, ommaviy so'rovlar (promptlar) oqimi orqali texnologik bazaning geometrik progressiyada rivojlanishiga, dasturchi, davlat va jamiyat uchun zanjirli strategik manfaatla yaratishiga olib kelishi isbotlanadi. Maqola yakunida foydalanuvchining «ijodiy nazorat va saralash» mezoni asosida mualliflik maqomini qonuniy mustahkamlash bo'yicha tavsiyalar ilgari suriladi.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, mualliflik huquqi, pragmatik-utilitarizm, tarmoq effekti, ijodiy nazorat, prognozli tahlil, Bern konvensiyasi, raqamli iqtisodiyot*

Abstract

The rapid evolution of generative artificial intelligence (AI) models has subjected the classic human-centric doctrine of intellectual property law to a conceptual crisis. Amidst the stagnancy of international treaties such as the Berne Convention, TRIPS, and WCT, denying copyright protection to AI-generated works poses a severe risk of investment and creative stagnation within the digital economy. Employing a pragmatic-utilitarian approach and drawing on international precedents (e.g., *Thaler v. Perlmutter*, Beijing Internet Court rulings), this paper utilizes predictive modeling to analyze the economic and legal ramifications of granting versus denying copyrights to AI-generated content. The study demonstrates that while a model of legal restriction stifles creative activity, recognizing the user as a subject of law triggers a «**network effect**». This effect, driven by a massive influx of user queries (prompts), accelerates the exponential development of the underlying technological infrastructure, thereby generating a chain of strategic, win-win benefits for developers, the state, and society alike. Ultimately, the paper puts forward recommendations to legally formalize the user's authorship status based on the criteria of «creative selection and arrangement.»

Keywords: artificial intelligence, copyright, pragmatic-utilitarianism, network effect, creative control, predictive analysis, Berne Convention, digital economy.

Аннотация

Стремительная эволюция моделей генеративного искусственного интеллекта (ИИ) привела к концептуальному кризису классическую антропоцентрическую доктрину права интеллектуальной собственности. В условиях стагнации таких международных соглашений, как Бернская

SJIF: 5.051

конвенция, ТРИПС и ВОИС (WCT), отказ в предоставлении авторских прав на произведения ИИ создает угрозу инвестиционной и творческой стагнации в цифровой экономике. В данной статье на основе прагматико-утилитарного подхода и международного прецедентного права (в частности, дел *Thaler v. Perlmutter* и решений Пекинского интернет-суда) моделируются экономико-правовые последствия признания и непризнания прав на произведения ИИ. В исследовании доказывается, что модель правовой рестрикции (ограничения) подавляет творческую активность, тогда как признание пользователя субъектом права запускает «сетевой эффект». За счет массового потока пользовательских запросов (промтов) этот эффект обеспечивает геометрический прогресс в развитии технологической базы, формируя цепочку стратегических выигрышных интересов (Win-Win) для разработчиков, государства и общества. В заключении выдвигаются рекомендации по законодательному закреплению статуса авторства за пользователем на основе критерия «творческого контроля и отбора».

Ключевые слова: искусственный интеллект, авторское право, прагматико-утилитаризм, сетевой эффект, творческий контроль, прогностический анализ, Бернская конвенция, цифровая экономика.

Kirish.

Generativ sun'iy intellekt modellarining ommaviy tarqalishi — ChatGPT, Midjourney, DALL-E va o'xshash platformalar — intellektual mulk huquqida yangi paradoks vujudga keltirdi: industrial miqyosda yaratilayotgan asarlar huquqiy subyektlikdan mahrum bo'lmoqda. Bern konvensiyasi (1886) asosida shakllangan klassik «inson-markazlik» doktrinasi mualliflikni biologik shaxsga

bog'laydi; bu tizim o'z zamonasida universal edi, biroq bugungi raqamli ijod davrida strukturaviy nomuvofiqlikka aylandi.

Ushbu nomuvofiqlikning amaliy oqibatlari ikki yo'nalishda namoyon bo'lmoqda. Birinchidan, *huquqiy restriksiya* — mualliflik huquqidan mahrum foydalanuvchi o'z intellektual investitsiyasini himoya qila olmaydi, bu esa ijodiy faollikni bo'g'adi. Ikkinchidan, *iqtisodiy turg'unlik* — davlat, akademik muassasalar va texnologiya sektori potensial zanjirli manfaatdan mahrum bo'ladi. Xitoy (Pekin internet sudi, 2023) va AQSh (*Thaler v. Perlmutter*, 2023) sud amaliyoti bu masalada tubdan qarama-qarshi yondashuvlarni namoyish etib, xalqaro huquqiy konsensusning hali shakllanmaganini ko'rsatmoqda.

Ushbu maqolada SI asarlariga mualliflik huquqini berish va bermaslikning iqtisodiy-huquqiy oqibatlari pragmatik-utilitar metodologiya asosida prognozli tahlil etiladi. Tadqiqot foydalanuvchini huquq subyekti deb tan olishning «tarmoq effekti» orqali zanjirli strategik manfaatlar (*Win-Win*) yaratishini ko'rsatib, «ijodiy nazorat va saralash» mezonini milliy qonunchilik uchun normativ asos sifatida asoslaydi.

Amaldagi huquqiy holat va global pretsedentlar kolliziyasi

Mualliflik huquqining xalqaro arxitekturasi uchta asosiy hujjatga tayanadi: Bern konvensiyasi (1886, 1971-yilgi Parij tahriri), TRIPS shartnomasi (1994) va Butunjahon intellektual mulk tashkilotining Mualliflik huquqi shartnomasi (WCT, 1996). Ushbu hujjatlar mualliflikni «ijodiy asar yaratgan jismoniy shaxs» bilan bog'laydi; avtomatik himoya, minimal muddatlar va milliy rejim tamoyillari ushbu antropotsentrik asosda qurilgan. Sun'iy intellekt (SI) mustaqil yaratuvchi sifatida ushbu tizimda huquq subyekti emas — bu uchta shartnomada ham to'g'ridan-

to'g'ri belgilanmagan bo'lsa-da, «inson muallif» prezumpsiyasi barcha normalarning interpretatsion negizini tashkil etadi.

Milliy sud amaliyoti ushbu global bo'shliqni ikki tubdan qarama-qarshi yo'nalishda to'ldirishga urindi. AQShda Thaler v. Perlmutter ishida (D.D.C., 2023; D.C. Circuit, 2025) sudlar «DABUS» tizimi tomonidan mustaqil yaratilgan tasvirga mualliflik huquqi berishni ikki instansiyada ham rad etdi. DC Circuit 2025-yilgi qarorida inson ijodiy ishtiroki bo'lmagan asarni himoya qilish uchun qonuniy asos yo'qligini qat'iy ta'kidladi. Mazkur pozitsiya AQSh Mualliflik huquqi idorasining (US Copyright Office) 2023-yilgi ko'rsatmasi bilan ham mustahkamlangan: agar inson yakuniy mahsulot ustidan to'g'ridan-to'g'ri «ijodiy nazorat»ini namoyish eta olmasa, asarni ro'yxatga olish rad etiladi.

Xitoyda esa Pekin internet sudi Li Yunkai v. Liu Yuanchun ishida ((2023) Jing 0491 Min Chu No. 11279) tubdan boshqa yo'l tutdi: foydalanuvchi tomonidan ochiq kodli SI modeli Stable Diffusion yordamida yaratilgan tasvirga mualliflik huquqini tan oldi. Sud asosiy mezon sifatida foydalanuvchining «intellektual sa'y-harakat va ijodiy tanlov»ini — ya'ni prompt tuzish, parametrlarni belgilash, piksellarni sozlash va yakuniy natijani saralash jarayonini — ko'rsatdi. Bu yondashuv «inson ishtiroki» talabini saqlab qolgan holda, uni raqamli davr uchun funksional tarzda qayta talqin etdi.

Ikki yetakchi yurisdiksiyaning ushbu qarama-qarshiligi xalqaro huquqiy konsensusning hali shakllanmaganini yaqqol ko'rsatadi. Bern konvensiyasi tizimi yangi texnologik reallikka moslashish uchun moslashuvchan normativ resurs taqdim etmayapti — bu esa milliy huquq ijodkorligi, shu jumladan O'zbekiston qonunchiligi, uchun ham xavf, ham global miqyosda peshqadamlikka chiqish uchun fundamental imkoniyat yaratmoqda.

Mualliflik huquqini bermaslikning iqtisodiy-huquqiy oqibatlari (Restriktiv ssenariy prognozi)

Mualliflik huquqining klassik iqtisodiy nazariyasi — W. Landes va R. Posner konsepsiyasi (1989) — huquqiy himoyani ijodiy faollikni rag'batlantiruvchi hamda «bozor inqirozi» (market failure) oldini oluvchi asosiy mexanizm sifatida baholaydi: eksklyuziv huquqiy kafolat bo'lmasa, intellektual sarmoya o'zini oqlamaydi va investitsiya amalga oshirilmaydi.

Sun'iy intellekt asarlari kontekstida ushbu mantiq mutlaqo yangi o'lcham kasb etmoqda. Foydalanuvchi tizimga murakkab promptlar kombinatsiyasini tuzish, generatsiya parametrlarini sozlash, iteratsiyalarni boshqarish va yakuniy natijalarni filtrlashga o'z vaqti, professional malakasi va kognitiv resurslarini sarflaydi — bu raqamli iqtisodiyotdagi real intellektual investitsiyadir. Agar ushbu investitsiya huquqiy himoyadan mahrum qilinib, asar avtomatik ravishda jamoat mulki (public domain) rejimiga o'tkazilsa, ratsional aktyor nuqtai nazaridan bunday platformalarda ijodiy faollikni davom ettirish motivatsiyasi pasayadi. Huquqshunoslikda bu hodisa «rag'batlantirish funksiyasining buzilishi» deb ataladi — ya'ni huquqiy tizim o'zi rag'batlantirishi lozim bo'lgan innovatsion faoliyatni amalga bo'g'adi va erkin ijodiy muhitni cheklaydi.

Ushbu iqtisodiy turg'unlik faqat individual foydalanuvchi darajasida cheklanib qolmay, balki makro-tizimli miqyosda zanjirli reaksiyani keltirib chiqaradi. Davlat darajasida intellektual mulkni rasmiylashtirish tizimi potensial bojlar va litsenziya to'lovlaridan mahrum bo'ladi: mualliflik huquqi tan olinmagan asar rasmiy muomalaga kirmaydi, natijada raqamli kontent aylanmasidan undiriladigan soliqlar va boj ko'rinishidagi moddiy manfaatlar boy beriladi. Institutsional darajada akademik muassasalar va tadqiqot markazlari SI tizimlari

yordamida yaratilgan ilg'or ilmiy, tahliliy yoki badiiy asarlarni o'zlarining huquqiy jihatdan himoyalangan intellektual mahsuloti sifatida qayd eta olmaydi, bu esa sohaviy reytinglar va ilmiy salohiyat ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir qiladi. Biznes va texnologiya sektori darajasida esa IT-korporatsiyalar o'z foydalanuvchilarini platformaga bog'lab turadigan va tijoriy ishonchni ta'minlaydigan huquqiy mexanizmdan — mualliflik sertifikatidan — mahrum bo'ladi; tizim bor-yo'g'i cheklangan doiradagi an'anaviy mualliflarning huquqiy monopoliyasini himoya qilib, ommaviy kontent-meykerlarni doimiy «sudlashuv xavfi» (litigation risk) ostida qoldiradi. Natijada individual, institutsional va davlat darajalarida bir vaqtda namoyon bo'luvchi tizimli iqtisodiy yo'qotish vujudga keladi.

Eng paradoksal oqibat esa huquqiy tizimning o'z maqsadi va falsafasiga zid ishlashidir. Mualliflik huquqi doktrinasida tarixan ikki dual maqsadni ko'zlagan: muallifning shaxsiy va mulkiy manfaatini himoya qilish hamda jamiyat uchun uzluksiz ijodiy mahsulot oqimini ta'minlash. SI asarlariga huquq berilmagan taqdirda, birinchi maqsad — foydalanuvchi himoyasi — to'liq e'tibordan chetda qoladi. Ikkinchi maqsad — ijtimoiy kontent oqimi — ham jiddiy zararlanadi, chunki huquqiy noaniqlik va sudma-sud sudrashish xavfi sharoitida foydalanuvchilar keng miqyosli, uzoq muddatli va yuqori budjetli ijodiy loyihalardan qochishni afzal ko'radilar. Xitoy sud amaliyoti (Li Yunkai, 2023) yaqqol ko'rsatganidek, «inson ishtiroki» mezonini raqamli voqelikka moslab funksional talqin qilish orqali ushbu dual maqsadning ikkalasini ham muvaffaqiyatli saqlab qolish mumkin — AQShning o'ta restriktiv yondashuvi esa har ikki maqsadni ham zaiflashtirib, raqamli bozorda turg'unlikni shakllantirmoqda.

III. Mualliflik huquqini berishning strategik oqibatlari va tarmoq effekti (Liberal ssenariy prognozi)

Iqtisodiy nazariyada «tarmoq effekti» (network effect) hodisasi — platformaning tizimli qiymati uning foydalanuvchilar soniga proporsional ravishda emas, balki foydalanuvchilar aloqalari sonining kvadratiga (n^2) mutanosib ravishda geometrik progressiyada o'sishi — raqamli bozorning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida tan olingan (Metcalf qonuni, 1980). Sun'iy intellekt asarlariga mualliflik huquqini berish aynan ushbu makroiqtisodiy mexanizmni ishga tushiradi: foydalanuvchi o'z intellektual investitsiyasi va kognitiv mehnati huquqiy jihatdan himoyalanganini bilsa, platformada faolroq ishlaydi, ko'proq murakkab promptlar yuboradi hamda uzoq muddatli loyihalarni boshlaydi.

Faol foydalanuvchilar oqimining o'sishi platformaning ma'lumotlar bazasini (Big Data) uzluksiz boyitadi, bu esa neyron tarmoq modellarining yanada aniqroq, chuqurroq va qobiliyatliroq o'rganishini — algoritmik evolyutsiyani — ta'minlaydi. Modelning mukammallashuvi esa o'z navbatida yangi iste'molchilar to'loqini jalb etadi. Natijada o'z-o'zini kuchaytiruvchi ijobiy sinergetik sikl — barqaror «raqamli ijodiy ekotizim» — vujudga keladi.

Makrodavlat darajasida ushbu siklning zanjirli strategik manfaatlari aniq prognozlanadi. Mualliflik huquqini rasmiylashtirgan foydalanuvchilar soni o'sishi bilan davlatning intellektual mulk registri kengayadi: ro'yxatga olish bojlari, eksklyuziv litsenziya to'lovlari va raqamli kontent aylanmasidan undiriladigan soliqlar ko'rinishidagi moddiy manfaat geometrik o'sadi. Bundan tashqari, akademik va tadqiqot muassasalari SI yordamida yaratilgan himoyalangan asarlarni qonuniy intellektual mahsulot sifatida qayd etib, xalqaro reytinglarda

(Scopus, Nature Index va boshqalar) o'z pozitsiyalarini mustahkamlaydi. Jamiyat darajasida esa ilgari resurs va mutaxassis yetishmasligi sababli amalga oshirib bo'lmaydigan yirik ijodiy, ilmiy va sohaviy loyihalar — tibbiy illyustratsiyalar, murakkab arxitektura eskizlari, interaktiv ta'lim materiallari — ommaviy va arzon shaklda ishlab chiqarilishi mumkin bo'ladi.

Liberal ssenariyning eng muhim strategik oqibati — bu raqobat muhitining institutsional kuchayishidir. Foydalanuvchilar bazasining geometrik o'sishi SI platformalari o'rtasidagi raqobatni keskin tezlashtiradi: har bir platforma o'z foydalanuvchilarini ushlab qolish va yangilarini jalb etish uchun o'zining texnologik bazasini tinimsiz rivojlantirishga, infratuzilmaga investitsiya kiritishga majbur bo'ladi. Bu holat texnologik turg'un va bashorat qilinadigan an'anaviy sikldan bir necha bor tezroq innovatsion rivojlanish traektoriyasini vujudga keltiradi. Boshqacha aytganda, foydalanuvchiga huquq berish nafaqat subyektning o'zini himoya qiladi — balki IT-korporatsiyalarni ham tizimni fundamental rivojlantirishga majburlaydi.

Yakuniy tahlilda liberal ssenariy barcha ishtirokchilar uchun mutloq «Win-Win» strategik modelini yuzaga keltiradi. Foydalanuvchi o'z intellektual sarmoyasini huquqiy himoyaga olib, ijodiy faolligini kengaytiradi; platforma egasi foydalanuvchilar oqimidan texnologik va moliyaviy manfaat ko'radi; davlat soliq va boj bazasini kengaytirib, global raqamli iqtisodiyotda peshqadamlikka chiqadi; jamiyat esa ilgari imkonsiz ko'ringan intellektual mahsulotlar va innovatsiyalar oqimidan uzluksiz bahramand bo'ladi. Restriktiv ssenariyda esa bu manfaatlar barchasi — foydalanuvchi, platforma, davlat va jamiyat darajasida — bir vaqtda barbod bo'ladi. Demak, SI asarlariga nisbatan yuritiladigan huquqiy siyosat

masalasi faqat individual mualliflik huquqini taqsimlash emas — bu raqamli iqtisodiyotning butun kelajak arxitekturasiga doir fundamental strategik tanlovdur.

Xulosa va tavsiyalar

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, SI asarlariga mualliflik huquqini berish yoki bermaslik masalasi sof huquqiy muammo emas — bu raqamli iqtisodiyotning kelajak arxitekturasini belgilovchi strategik siyosiy-huquqiy tanlovdur.

Ushbu konseptual xulosalar asosida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish maqsadida quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

O'zbekiston Respublikasining amaldagi intellektual mulk to'g'risidagi qonunchiligi, xususan, Fuqarolik kodeksining To'rtinchi bo'limi (Intellektual mulk), shuningdek, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida" gi Qonun sun'iy intellekt tizimlari yordamida yaratilgan obyektlarning huquqiy maqomini belgilovchi maxsus normalar bilan to'ldirilishi lozim.

Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining tegishli bob oxiriga prim modda sifatida quyidagi mazmundagi modda bilan to'ldirish taklif etiladi:

«Kompyuter tizimlari, dasturiy algoritmlar yoki sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida generatsiya qilingan asarlarga nisbatan mualliflikning mulkiy (eksklyuziv) huquqlari, agar foydalanuvchi shartnomasida yoki qonunda boshqacha ko'zda tutilmagan bo'lsa, ushbu asarning yaratilishi uchun zarur bo'lgan texnik-kognitiv sharoitlarni ta'minlagan, tizimli so'rovlarni (promptlarni) shakllantirgan hamda yakuniy natijani ijodiy nazorat va saralash orqali rasmiylashtirgan foydalanuvchiga
SJIF: 5.051

(jismoniy yoki yuridik shaxsga) tegishli bo'ladi. Bunday asarlarning muhofaza qilinish muddati asar qonuniy ravishda yaratilgan yoki e'lon qilingan paytdan e'tiboran 50 yilni tashkil etadi.»

Taklif etilayotgan normaning institutsional ahamiyati

1. **Huquqiy aniqlik muvozanati:** Foydalanuvchining prompt tuzish, parametrlarni belgilash va natijalarni saralash jarayonidagi kognitiv harakati «ijodiy nazorat» sifatida tan olinishi — tasodifiy generatsiyalarni qonuniy himoyadan ajratish imkonini beradi.

2. **Muddatlarni differensizatsiyalash:** Insonning an'anaviy ijodidan farqli o'laroq(70 yil), SI asarlari uchun cheklangan 50 yillik muddatning belgilanishi (Buyuk Britaniyaning *CDPA 1988* modeli asosida) raqamli asarlarning tezroq umumiy iste'molga va jamoat mulkiga o'tishini ta'minlaydi va jamiyat farovonligiga xizmat qiladi.

3. **Investitsiyaviy jozibadorlik:** Mazkur normaning joriy etilishi O'zbekistonni global va mintaqaviy miqyosda raqamli intellektual mulk huquqi bo'yicha peshqadam davlatlar qatoriga olib chiqadi, davlat intellektual mulk reyestrining soliq va boj bazasini kengaytiradi hamda milliy «White IT» (qonuniy raqamli biznes) ekotizimining rivojlanishiga mustahkam institutsional zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, «kim muallif?» degan klassik savol bugun «qanday kelajak qurmoqchimiz?» degan strategik savolga transformatsiya bo'ldi. Raqamli makonda ushbu savolga berilajak huquqiy javob nafaqat individual ijodkorlarning huquqiy muhofazasini, balki milliy va global raqamli iqtisodiyotning butun rivojlanish traektoriyasini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston respublikasining fuqarolik kodeksi . IV bo‘lim. Intellektual mulk. <https://lex.uz/docs/-180552#-197231>
2. “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 20.07.2006 yildagi O‘RQ-42-son <https://lex.uz/docs/-1022944>
3. Bern konvensiyasi (1886, 1971 Parij tahriri) <https://www.wipo.int/wipolex/en/text/283698>
4. TRIPS shartnomasi (1994) https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/27-trips_04_e.htm
5. WCT — WIPO Mualliflik huquqi shartnomasi (1996) <https://www.wipo.int/wipolex/en/text/295157>
6. Landes W.M., Posner R.A. — «An Economic Analysis of Copyright Law» (1989)
7. Thaler v. Perlmutter, 687 F. Supp. 3d 140 (D.D.C. 2023)
8. Thaler v. Perlmutter (D.C. Circuit, 2025)
9. Li Yunkai v. Liu Yuanchun, (2023) Jing 0491 Min Chu No. 11279
10. US Copyright Office — Copyright Registration Guidance (2023)
11. Metcalfe R. — tarmoq effekti nazariyasi (1980)
12. Buyuk Britaniya CDPA 1988